



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING BUYRUG'I

№ 194

"25" 10 2021-yil

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining 2020-yil 17-fevraldagi
72-f-son farmoyishi ijrosini ta'minlash
to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-fevraldagi 72-f-son farmoyishi, hamda Qurilish vazirligining 2021-yil 9 martdagi 49-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2021-yil 9-martdagi 49-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yo'l xarita"sining tegishli bndlari ijrosi yuzasidan belgilangan topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan ichki hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati 1-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash Uslubiyoti 2-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvuni boshqarish bo'yicha Nizom 3-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti 4-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimi xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o'qitilishini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnoma 5-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma 6-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma 7-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 8-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizomi 9-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti 10-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tarkibiga kiruvchi muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik ko'rsatkichlari 11-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi Ichki audit va komplayens-nazorat boshqarmasi to'g'risidagi Nizom 12-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tarkibiy va hududiy bo'linmalarida Ichki audit va komplayens-nazorat mas'ul xodimlari va koordinatorlari to'g'risidagi namunaviy Nizom 13-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi odob-axloq Komissiyasi to'g'risida Nizom 14-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, hududiy bo'linmalari va uning tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha moddani kiritish to'g'risida Yo'riqnoma 15-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Qurilish vazirligini 2020-yil 29-oktabrdagi 292-sonli buyrug'ining 2-ilovasi (Qurilish vazirligining markaziy apparati hamda quyi tizim tashkilotlarining Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom) o'z kuchini yo'qotgan deb xisoblansin.

3. Vazirlik markaziy apparati, Qoraqolpog'iston Respublikasi qurilish vazirligi, Toshkent shahar va hududiy qurilish Bosh boshqarmalari hamda tizimga kiruvchi tashkilot va muassasalar raxbarlariga:

Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan ichki xujjatlar ijrosini belgilangan tartibda **to'liq va sifatli** bajarilishini ta'minlash yuklatilsin.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish Ichki audit va komplayens nazorat boshqarmasi (V.Ibadullayev) buyruq ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirib, vazirlik raxbariyatiga hamda tegishli davlat tashkilotlariga axborot berib borilishini ta'minlasin.

5. Vazirlik devonxonasi (G.Otaboyeva) mazkur buyruqni tarqatish ko'rsatkichi asosida mas'ul ijrochilarga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari D.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B.Zakirov

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil
17-fevraldagi 72-f-son farmoyishi ijrosini ta'minlash to'g'risidagi buyruq bilan
tasdiqlanadigan ichki hujjatlar ro'yxati**

№	Ilova raqami	Xujjatlar mazmuni
1	1-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati
2	2-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash Uslubiyoti
3	3-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvuni boshqarish bo'yicha Nizom
4	4-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti
5	5-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimi xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o'qitilishini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnoma
6	6-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma
7	7-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma
8	8-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti
9	9-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizomi
10	10-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalari xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti
11	11-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tarkibiga kiruvchi muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik ko'rsatkichlari
12	12-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi Ichki audit va komplayens-nazorat boshqarmasi to'g'risidagi Nizom
13	13-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tarkibiy va xududiy bo'linmalarida Ichki audit va komplayens-nazorat mas'ul xodimlari va koordinatorlari to'g'risidagi namunaviy Nizom
14	14-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi odob-axloq Komissiyasi to'g'risida Nizom
15	15-Ilova	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, hududiy bo'linmalari va uning tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha moddani kiritish to'g'risida Yo'riqnoma